

## ZARDUSHTIYLIKNING VUJUDGA KELISHI: TARIXIY SHAROITLAR VA O'RTA OSIYO SIVILIZATSIYASIDAGI O'RNI

Mansurova Nargiza Bobomuratovna

Turon universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20092913>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zardushtiylik dinining vujudga kelishiga olib kelgan tarixiy va ijtimoiy omillar hamda uning O'rta Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni qisqacha tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu ta'limotning asosiy g'oyalari va "Avesto" manbasi doirasidagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** zardushtiylik, Zaratushtra, Axura Mazda, Avesto, dualizm, qadimgi O'rta Osiyo, diniy qarashlar.

**Abstract:** This article briefly examines the historical and social factors behind the emergence of Zoroastrianism and its role in the development of Central Asian civilization. It also highlights the main ideas of this doctrine and the significance of the Avesto as its primary source.

**Keywords:** Zoroastrianism, Zarathustra, Ahura Mazda, Avesto, dualism, ancient Central Asia, religious beliefs.

**Аннотация:** В данной статье кратко рассматриваются исторические и социальные факторы возникновения зороастризма, а также его роль в развитии цивилизации Центральной Азии. Освещаются основные идеи данного учения и значение «Авесты» как его главного источника.

**Ключевые слова:** зороастризм, Заратуштра, Ахура Mazda, Авеста, дуализм, древняя Центральная Азия, религиозные представления.

**Kirish:** Zardushtiylik dini qadimgi O'rta Osiyoda shakllangan muhim diniy-falsafiy ta'limotlardan biridir. Uning vujudga kelishi miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, xususan davlatlarning paydo bo'lishi va ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi bilan bog'liqdir. Mavjud ibtidoiy diniy e'tiqodlar yangi sharoitlarga mos kelmay qolganligi sababli, jamiyatni birlashtiruvchi yangi diniy qarashlarga ehtiyoj yuzaga kelgan. Mazkur maqolada zardushtiylikning vujudga kelish omillari va uning O'rta Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni qisqacha tahlil qilinadi.

Islomdan avvalgi Markaziy Osiyoda zardushtiylikka oid yozma manbalar juda kam va tarqoq holda saqlanib qolgan. Ularning aksariyati mahalliy xalqlarning o'ziga emas, balki tashqi manbalarga tegishli. Shunga qaramay, Avesto matnlarining ayrim qismlari aynan Markaziy Osiyo hududlari bilan bog'liq bo'lib, bu dinning ildizlari shu mintaqada shakllanganini ko'rsatadi. Qo'shimcha ma'lumotlar tashqi manbalardan olinadi. Iskandar yurishlari haqidagi yunon tarixchilari Baqtriya va So'g'diyona diniy amaliyotlari haqidamuhim, ammo cheklangan ma'lumot beradi. VII–VIII asrlarga oid Xitoy manbalari, ayniqsa Tangshu, juda batafsil va aniqdir. Arab bosqinchilari Markaziy Osiyodagi aholining katta qismi zardushtiy ekanini tan olgan, ammo ular ibodatning o'ziga xos shakllariga ega ekanini ham qayd etganlar, jumladan butlar ibodatxonasi va otashkadalarning birga mavjudligi. XI asrga yaqin Abu Rayhon Beruniy Xorazm va So'g'diy zardushtiy taqvimlari, bayramlari va dafn marosimlarini qayd etgan.

Arxeologiya va numizmatika eng boy ma'lumotlarni beradi. Markaziy Osiyo hududlari Eron bilan solishtirganda kengroq o'rganilgan. Ayniqsa Sovet davrida arxeologik tadqiqotlar juda faol olib borilgan. Dafn arxeologiyasi bu hududda juda rivojlangan bo'lib, oddiy aholining diniy qarashlarini o'rganish imkonini bergan. Shuningdek, loy g'ishtdan qurilgan ibodatxonalar devoriy rasmlar va diniy qurilmalarni yaxshi saqlab qolgan. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda diniy tasviriy san'at Eronnikiga qaraganda ancha boy va rang-barangdir.

Zardushtiylik (shuningdek Mazdakiylik va Behdin deb ham ataladi) — Eron hududida shakllangan din bo'lib, u "Avesto" kitobi va Zardusht Spitama ta'limotlariga asoslanadi. Zardusht ko'pincha yunoncha nomi bilan — Zoroastr deb ataladi. Bu din dunyodagi eng qadimiy tashkil topgan dinlardan biri hisoblanadi. Zardushtiylik dini eramizdan avvalgi VI–V asrlarda O'rta Osiyo va qadimiy Eronda yuzaga kelgan dindir. Bu din Zaratushtra (yoki Zardusht, yoki Zoroastr) nomi bilan bog'liq.[1]

Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilishsa, yana boshqalar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u eramizdan avvalgi, taxminan, 570-yillarda tug'ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht O'rta Osiyodagi ko'pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi.

Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to'g'risida ikki fikr mavjud: birinchisi "G'arb nazariyasi" bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili — birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoning bizgacha yetib kelgan nusxasi qadimiy eron-pahlaviy tilida yozilganligidir.

Yana bir boshqa fikr "Sharq nazariyasi" bo'lib, bunga ko'ra Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi va ko'pchilik manbashunoslar shu nazariya tarafdoridirlar. Xorazm birinchi bo'lib zardushtiylik muqaddas olovi "Atar-xurra" yoqilgan va Ahuramazda Zardusht bilan bog'langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan Avestoda: "birinchi bor muqaddas olov 'Atarxurra' 'Eran-vej' (ba'zi manbalarda 'Ayran vedja')da yoqildi", deyiladi. "Eran-vej"ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi.

Avestoda Ahuramazda tomonidan berilgan "barokat va najot" sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi deb "dunyoda hech narsa uning chiroyiga teng kela olmas Eran-vej", keyin "odamlar va chorva podalariga mo'l" Sogd (Sug'd), "qudratli va muqaddas" Mouru (Marv), "baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati" Batxi (Baqtriya) zikr etiladi.[2]

Avestoda, shuningdek, Zardusht tug'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan yurt haqida ham ma'lumot beriladi. Aytishicha, "shunday mamlakatni ko'p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, chuqur, suvga mo'l ko'llari bor, keng qirg'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xareva (Ariya), Bava (Sug'd hududida), Xivaorizima (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor".

Shubhasiz, “keng qirg’oqli, kema yurar daryolar” bu Amu va Sirdaryo bo’lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O’rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg’oqlarida joylashganlaridir.

Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb Xorazm, Sug’d, Farg’ona yoki Baqtriyani ayta olamiz.

Avestoning “yasht” qismida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmaydilar va uning ta’limotini qabul qilmaydilar. Zardusht vatanni tark etib, qo’shni davlatga ketadi, u yerning malikasi Xutaosa va shoh Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi, ular Zardusht ta’limotini qabul qiladilar. Natijada qo’shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g’alaba qozonadi. Shundan so’ng bu ta’limot xalqlar o’rtasida keng tarqala boshlagan.[3]

Shoh Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi Avestoning qadimiy qismi “Gohlar” yozilib, shohning otashkadasiga topshirilgan. Uning tarafdorlari yaratilmagan, mehribon va donishmand yagona oliy zot — Ahura Mazda . Ahura Mazdaga qarshi kuch sifatida Angra Mainyu mavjud bo’lib, u yovuzlik timsoli va yaxshilikning dushmani hisoblanadi. Shu sababli Zardushtiylik yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurashga asoslangan dualistik dunyoqarashni o’z ichiga oladi va oxir-oqibat yaxshilikning g’alaba qilishini bashorat qiladi. Olimlar orasida bu din monoteistik, politeistik yoki ularning aralashmasi ekanligi haqida turli fikrlar mavjud. Zardushtiylik qadimgi eroniy dinning Zardusht tomonidan isloh qilinishi natijasida paydo bo’lgan. U Avesto davrida (ehtimol miloddan avvalgi 2-ming yillikda) boshlangan, ammo yozma manbalarda miloddan avvalgi VI asrda qayd etilgan. Keyingi ming yil davomida u turli Eron davlatlarining rasmiy dini bo’lib xizmat qilgan, jumladan Ahamoniylar imperiyasidan boshlab Sosoniylar imperiyasigacha. Milodiy VII asrda Islomning paydo bo’lishi va arablarning Eronni zabt etishi natijasida Zardushtiylik zaiflashib bordi. Ko’plab zardushtiylik Hindistonga ko’chib o’tib, bugungi parsalar jamoasining ajdodlariga aylanishdi. Hozirgi kunda bu din tarafdorlari soni taxminan 110–120 ming kishini tashkil etadi va ular asosan Hindiston, Eron va Shimoliy Amerikada yashaydilar. Din tarafdorlari sonining kamayishiga konvertatsiya cheklovlari, ichki nikoh an’analari va past tug’ilish darajasi sabab bo’lmoqda.[4]

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Markaziy Osiyoda qabilaviy ittifoqlar va urug’-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm hamda Baqtriya kabi qadimgi davlat birlashmalari shakllandi. Bu davlatlar mintaqada uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning mahsuli edi. Ularning ta’sirida jamiyatda o’rni, imkoniyati va ahamiyatiga ko’ra farqlanadigan turli guruhlar, tabaqalar va sinflar yuzaga keldi. Davlat esa mavjud ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot vazifasini bajardi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’zgarishlar natijasida ibtidoiy madaniyat, jumladan diniy e’tiqodlar ham yangi sharoitlarga mos kelmay qoldi. Shu sababli mavjud diniy qarashlarni yangi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy munosabatlarga moslashtirish zarurati tug’ildi. Zardushtiylik aynan ana shu ehtiyojlarga javob beruvchi diniy ta’limot va o’ziga xos dunyoqarash sifatida shakllandi.

Zardushtiylikning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo’lgan. Avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning paydo bo’lishi natijasida ibtidoiy diniy shakllar zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuningdek, tabiat kuchlari va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi urug’-qabila dinlari o’rniga aniq vazifalarga ega, jamiyat hayotiga

yaqinroq bo'lgan ilohiy kuchlar tizimini shakllantirish ehtiyoji yuzaga keldi. Bundan tashqari, jamiyatni mustahkamlash uchun ma'naviy tajribani umumlashtirib, unga ilohiy tus berish zarur edi.[5]

Zardushtiylikning qayerda paydo bo'lgani masalasida olimlar turlicha fikr bildiradilar. G'arb tadqiqotchilarining aksariyati uni Eron hududida shakllangan deb hisoblaydi. Sharq olimlari orasida esa bu din Xorazm yoki Baqtriyada yuzaga kelgan degan qarash keng tarqalgan. Tarixiy va diniy manbalarga tayangan holda, Zardushtiylikning Xorazm vohasida shakllanganini ko'rsatadigan dalillar ham mavjud.

Taxminan 2700 yil avval yashagan tarixiy shaxs — Zardusht Spitama ushbu din asoschisi hisoblanadi. U ilohiyotshunos, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim sifatida jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan eski diniy e'tiqodlar o'rniga yangi, birlashtiruvchi va nisbatan yakkaxudolik g'oyalari yaqin bo'lgan diniy tizimni ishlab chiqdi. Uning ta'limoti "Gotlar" deb ataluvchi she'riy to'plamda bayon etilgan bo'lib, keyinchalik u Zardushtiylikning muqaddas kitobi — "Avesto"ning "Yasna" qismiga kiritilgan.

"Zardusht" so'zi qadimgi fors tilida "tuya" va "sariq" ma'nolarini anglatuvchi so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, "kekxa tuya boquvchi" yoki "tuya boqchilar avlodi" degan ma'noni bildiradi. Qadimgi yunon manbalarida esa u Zoroastr nomi bilan tilga olinib, "donishmand munajjim" sifatida tasvirlangan.

"Zardushtiylik" atamasi o'rta asrlardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bungacha bu din "Mazda Yasna", ya'ni "donishmand Xudoga sig'inish" deb atalgan. Rivoyatlarga ko'ra, Zardusht 40 yoshida ilohiy vahiyga ega bo'lib, Ahura Mazda tomonidan insonlarga haqiqatni yetkazish uchun tanlangan. Shundan so'ng u yangi dinni targ'ib qilishni boshlagan, biroq dastlab muvaffaqiyat qozona olmagan. Keyinchalik Baqtriyada hukmdor Vishtaspa va malika Xutosa tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Zardushtiylik davlat dini sifatida tan olingan.

Bu dinning keng yoyilishi Ahamoniylar imperiyasi davriga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi VI asrda shoh Kambiz uni davlat dini deb e'lon qilgan va bu uning katta hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan.[6]

Zardushtiylik ta'limotining asoslari "Avesto" kitobida jamlangan. Bu asar bir necha asrlar davomida shakllanib, turli qismlardan iborat bo'lgan. Bizgacha uning "Vendidod", "Yasna", "Visprat" va "Yasht" qismlari yetib kelgan. Keyinchalik diniy marosimlarda foydalanish uchun "Xurda Avesto" ("Kichik Avesto") ham yaratilgan.

"Avesto" nafaqat diniy, balki tarixiy va ilmiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Unda qadimgi jamiyatlarning turmush tarzi, urf-odatlar, iqtisodiy faoliyati va geografik sharoitlari haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Zardushtiylik yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni aks ettirgan diniy ta'limot bo'lib, uning shakllanishida Zardushtning o'rni beqiyosdir. Adolat, axloq, mas'uliyat va poklik kabi qadriyatlarni ilgari surganligi sababli bu ta'limot keng hududlarga yoyilib, asrlar davomida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Boyce, Mary (1975). The History of Zoroastrianism. Vol. 1. Leiden p-45.
2. Skjærvø, Prods Oktor, ed. (2011). The Spirit of Zoroastrianism. Yale University Press. P-51

3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. — «Sharq», 2001. — T.: b-257
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Zoroastrianism>
5. Rose, J. (2014). Zoroastrianism: An Introduction. I. B.Tauris. p-31
6. Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. B-75